

SHARTNOMA № 14

Andijon shaxar

2022 yil «05» 01988pg

Bizlar kim quyida imzo chekib o'zaro shartnoma tuzuvchilar bir tomondan - "AND MOTOR SERVIS" XK nomidan shaxsan U.Tojiboev bundan buyon "Bajaruvchi" deb nomlanadi va ikkinchi tomondan o'z nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi nomidan U.To'xtarov kelgusida "Buyurtmachi" deb nomlanib, quyidagi mazmunda shartnoma tuzdik.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. "Bajaruvchi" o'ziga tegishli bo'lgan va kelishilgan ishlarni ya'ni, elektrodvigatelni to'la ta'mirlab berish majburiyatini oladi. "Buyurtmachi" esa ushbu to'la ta'mirlangan elektrodvigatelni qabul qilib olib hisob kitob qiladi.

1.2. "Buyurtmachi" ta'mir uchun topshirilgan elektrodvigatelni to'liqligini ta'minlaydi.

1.3. "Bajaruvchi" elektrodvigatelni sifatli qilib ta'mirlaydi.

№	Ta'mir ishlari nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Birlik narxi (Q.Q.S bilan)	Umumiy qiymati (Q.Q.S bilan)
1.	AHP 250 kVt 1500 ayl/min el.dv mukammal ta'miri	dona	1	39 799 300	39 799 300
	Jami:	Dona	1		39 799 300

2. MAXSULOTNING SIFATI

2.1. Shartnoma "Bajaruvchi" elektrodvigatelni ishlash kafolatli muddatini "Buyurtmachi" ishga tushgan kundan boshlab 6 (olti) oy deb belgilaydi

2.2. Ta'mirlangan elektrodvigatelidan "Buyurtmachi" kafolatli muddatlarda nuqsonlar aniqlasa, ikkala tomonning vakillari ishtirokida dalolatnoma tuziladi va ushbu dalolatnoma asosida "Bajaruvchi" ning aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni "Buyurtmachi" bilan kelishilgan muddatda "Bajaruvchi" hisobidan bartaraf qilinadi.

3. SHARTNOMA QIYMATI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Shartnomaning umumiy summasi: Q.Q.S bilan 39 799 300 (O'ttiz to'qqiz million yetti yuz to'qson to'qqiz ming uch yuz) so'm 00 tiyin bo'lib hisob-kitob "Buyurtmachi" tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.2. Shartnoma kuchga kirib, tegishli G'aznachilik tizimidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng 5 bank ish kunida "Buyurtmachi" to'la ta'mirlangan elektrodvigatel statorini umumiy summasining 30%i ya'ni 11 939 790 (o'n bir million to'qqiz yuz o'ttiz to'qqiz ming yeti yuz to'qson)so'm oldindan avans tariqasida "Bajaruvchi" ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.3. Qolgan oxirgi 70% izi yoki 27 859 510 (*Yigirma yetti million sakkiz yuz ellik to'qqiz ming besh yuz o'n*) so'mni "**Bajaruvchi**" tomonidan to'la ta'mirlangan elektrodvigatelni hisob varaq fakturalari asosida 10 bank ish kunida o'tkazib beradi.

3.4 "**Buyurtmachi**" tomonidan shartnoma summasining 30%i ya'ni 11 939 790 (*o'n bir million to'qqiz yuz o'ttiz to'qqiz ming yeti yuz to'qson*)so'm oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng "**Bajaruvchi**" 5 bank ish kuni davomida mazkur shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va narxlarda to'la ta'mirlangan elektrodvigatelni o'z omboriga olib keladi.

3.5. "**Bajaruvchi**" to'la ta'mirlanadigan elektrodvigatelni 30% avans to'lovi o'tkazilgandan so'ng o'n kun ichida "**Buyurtmachi**" ga to'liq ta'mirlab beradi.

3.6. Maxsulotlarni yetkazib berish xarajati "**Buyurtmachi**" hisobidan qoplanadi.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. "**Bajaruvchi**" quyidagi huquqlarga ega:

- "**Buyurtmachi**"dan ta'mirlangan elektrodvigatelni uchun oldindan xaq to'lanishi va tegishli qonun xujjatlarida belgilangan tartibda va to'la xajmda uzil-kesil hisob-kitob qilinishini byudjet tashkilotidan talab qilish;

4.2. "**Bajaruvchi**" quyidagilarga majbur:

- Byudjet tashkilotiga ta'mirlangan elektrodvigatelni mazkur shartnomaga muvofiq yoki byudjet tashkiloti tomonidan mazkur shartnomaning 5.5-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga asosiy belgilangan muddatlarda sifat va miqdorida topshirish:

-Agar ta'mirlangan elektrodvigatelni topshirish jarayonida yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'yilgan bo'lsa byudjet tashkilotining talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklar 3-kun muddatda bepul tuzatib berish;

4.3. "**Buyurtmachi**"ning xuquqlari:

- "**Bajaruvchi**" ta'mirlangan elektrodvigatelni amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish:

- "**Bajaruvchi**"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga muvofiq sifatli qilib ta'mirlab berishni talab qilish;

- Baxosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

- Mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplanishini "**Bajaruvchi**"dan talab qilish;

4.4. "**Buyurtmachi**" ning majburiyatlari: - o'z buyurtmanomasi bo'yicha ta'mirlangan elektrodvigatelni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

4.5. Shartnomada ko'rsatilgan narxlar bozorda narx navo o'zgarishi hisobiga o'zgartiriladi.

5. SHARTNOMANING BAJARILISHI

5.1 Shartnoma qonun xujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi shart. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul kilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa shartnoma bajarilgan deb xisoblanadi.

5.2 Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Qonun xujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

5.3 "**Buyurtmachi**"ning roziligi bilan ta'mirlangan elektrodvigatelni muddatdan oldin yetkazib berilishi mumkin.

5.4 "**Buyurtmachi**" muddatlari buzilgan ta'mirlangan elektrodvigatelni qabul qilishni rad etishga xaqli.

5.5. Ta'mirlab berilgan elektrodvigatelin bevosita "**Buyurtmachi**" ning ma'sul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi.

5.6 Mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlanadigan elektrodvigatelni bevosita "**Buyurtmachi**" ning buyurtmanomasida ko'rsatilgan muddatlar va xajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni xamda Fuqarolik kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

7. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ular sudgacha xal etish choralarini ko'radilar.

7.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni xal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

7.3 Kelishmovchiliklarni muzokoralar yo'li bilan hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda nizo Xo'jalik sudida xamda tomonlarning aloxida kelishuviga asosan Hakamlik sudida xal qilinadi.

8. QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Agarda bir tomonda shartlarni bajara olmasligi yoki maxsulot sifati, miqdori va summasi to'grisidagi o'zgarish bo'lsa, oldindan o'zaro kelishuvga asosan o'zgartirish kiritiladi.

8.2. Fors major xolatida shartnoma buzilsa, o'zaro kelishib olinadi.

8.3. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, ikkisi xam yuridik jixatidan teng kuchli xisoblanadi.

9. FORS-MAJOR

9.1 "**Buyurtmachi** va **Bajaruvchi** maxsulot ishlab chiqarish pasayganda yoki maxsulot ishlab chiqarish to'xtatilganda favqulodda ko'zda tutilmagan hollarda (Fors-major) maxsulot ishlab chiqarishni to'xtatishlari yoki uni jo'natishni kamaytirishlari mumkin. Buning uchun ikala tomonlar xam javobgar emaslar.

9.2. Fors-major holatlarini bajarganida bir tomon ikkinchi tomonni bu xaqda yozma ravishda darxol xabar qilishi lozim. Ushbu sabablar bo'yicha shartnomani bajarish 90 kunga qadar to'xtatib turilsa bu xaqda xabardor qilgan tomon shartnomani bekor qilishga xaqlidir va bunda yozma ravishda ikkinchi tomonni xabardor qilish kerak.

9.3. Tugatilgan, qayta tashkil qilingan o'zidan tarqatilganlik (bankrot) xollarda "**Buyurtmachi**"; "**Bajaruvchi**" ga 10 kunlik muddat mobaynida ikkinchi tomonni teletayp, telegramma yoki yozma

ravishda xabardor qilishi zarur va uning oldidagi qarzini ikki xafta muxlati ichida to'lash bo'yicha chora ko'rishga majburdir.

10. SHARTNOMA MUDDATI

10.1. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib, 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

10.2 Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham huquqiy jixatdan teng kuchli hisoblanadi.

11. TOMONLAR BANK REKVIZITLARI VA MANZILGOXLARI

Andijon shahar Chinobod ko'cha 1-b uy

«Bajaruvchi»

«Buyurtmachi»

"AND MOTOR SERVIS" XK


“Xamkor bank” ATB


MFO: 00083 INN: 301969224

H/R: 20208000704909760001




Rahbari:

 U.Tojiboev



Rahbari:

 U.To'xtarov

Quyida: Jamiyati To'xtarov G.B.

"К Е Л И Ш И Л Д И"

Норин-Корадарё ИТХБ хузуридаги

Андижон НСЭБ бошлиги

У.Тўхтаров

"5" сентябрь 2022 йил




"Т А С Д И Қ Л А Й М А Н"

"AND MOTOR SERVIS"

ХК раҳбари

У.Тожибоев

"5" сентябрь 2022 йил



КАЛЬКУЛЯЦИЯ

АИР 250 кВт 1500 об/мин электродвигатель

Т/р	Номланиши	Ўлч. бирлиги	Мик-дори	Нархи	Суммаси
	Ишчи хизматчилар иш хаки	одам/соат	180	17 000,0	3 060 000
	Транспорт ва механизм харажатлари	маш/соат	50	10 703	535 150
1	Лак пропиточный	кг	6	45 000	270 000
2	Эмал провод	кг	160	113 080	18 092 800
3	Электро картон	кг	3	80 000	240 000
4	Синте картон	кг	5	90 000	450 000
5	Кипр лента бандаж	метр	100	500	50 000
6	Клин пазовый	дона	30	5 000	150 000
7	Турупка ПХВ-10	дона	50	5 000	250 000
8	Слюда лента	кг	1	300 000	300 000
9	Подшипник 319	дона	2	400 000	800 000
10	Конец вывода	метр	3	100 000	300 000
11	Барнок	дона	1	400 000	400 000
12	Наканечный	дона	6	50 000	300 000
13	Винтилятор	дона	1	400 000	400 000
14	Кожук	дона	1	496 232	496 232
15	Кришка	дона	2	500 000	1 000 000
16	Статор таъмир	дона	1	1 959 290	1 959 290
17	Краска эмал	кг	2	50 000	100 000
	Жами сарфланган материаллар				29 153 472
	Бошқа пудрат харажати 18,71%				5 454 615
	Жами				34 608 087
	ҚҚС				5 191 213

КАЛЬКУЛЯЦИЯ БЎЙИЧА ЖАМИ

39 799 300

Тузувчи :

У. Тожибоев